

"1 million evaziga iPhone" aksiya qoidalari

Ushbu hujjat "InfinBank" AJ tomonidan tashkil etiladigan "1 million evaziga iPhone" aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, muddatlarini belgilaydi.

Atama va ta'riflar

Bank - "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati bo'lib, "1 million evaziga iPhone" aksiyasining (keyingi o'rinlarda - aksiya) tashkilotchisi hisoblanadi.

Ishtirokchi - 18 yoshdan oshgan, Bank tomonidan chiqarilgan InfinBLACK kredit kartasi egasi va Bankning masofaviy bank xizmatlari iste'molchisi (Infinbank mobil ilovasi foydalanuvchisi) bo'lgan, 2024-yil dekabr oyida Bank tomonidan chiqarilgan InfinBLACK kredit kartalari orqali xaridlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

G'olib - aksiyaning barcha ishtirokchilari orasida g'olib chiqqan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi. G'olib Bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli e'firda tasodifiy tanlov asosida aniqlanadi.

Sovrin - iPhone 15 Pro Max 256 GB smartfoni.

To'lov - bu tovarva xizmatlarni sotib olish uchun ushbu Qoidalar shartlariga muvofiq Bank tomonidan chiqarilgan InfinBLACK kredit kartasidan pul mablag'larini o'tkazish jarayonidir.

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti, harbiy xizmatchilar uchun harbiy guvohnoma, ID-karta, xorijga chiqish biometrik pasporti, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi.

Shaxsiy ma'lumotlar - elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan, Ishtirokchiga tegishli yoki uning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar.

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Qoidalar aksiyani o'tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya o'tkazilish sanalari: 2025 yil 1 yanvardan 31 yanvargacha davom etadi.
- 1.3. Aksiya o'tkaziladigan joy: aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida "InFinBank" AJ bank tizimida o'tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyada o'tgan oyga nisbatan 1 000 000 so'm ko'proq xizmatlar yoki tovarlar to'lagan InfinBLACK karta egalari ishtirok etishlari mumkin:

- Tovar va xizmatlarga onlayn va oflayn to'lov.
- Xizmatlar uchun to'lov: SOLIQ SERVIS, Avia va temir yo'l chiptalari, AYOQSH va avto ehtiyot qismlari, Bank xizmatlari, Bio-pasport, Xayriya, Vaucherlar va sertifikatlar, Suv, Gaz, Shahar telefoniyasi, Davlat xizmatlari va YHXB jarimalari, Davlat bojxona xizmati, FHDYO va Notarius, Xorijiy telefoniya, O'yinlar, Internet provayderlari, Internet xizmatlari, G'aznachilik, Kafe va restoranlar, Kommunal xizmatlar, Savdo xizmatlari, Tibbiyot, Mobil aloqa va Shahar telefon tarmog'i, Mobil operatorlar, SOLIQLAR, Ta'lim, E'lonlar va reklama, OVVIG, Onlayn xizmatlar, Mehmonxonalar va turizm, Kreditni so'ndirish va muddatli to'lov, Sug'urta, Uy-joy

mulkdorlari shirkati, Xizmatlar, Operator xizmatlari, Raqamli TV, Elektron hamyon, Elektr energiyasi, Onlayn to'lovlar .

2.2. Bank xodimlari aksiyada qatnashishi mumkin emas.

2.3. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Qoidalarga to'liq roziligini bildiradi. 2.4. Aksiya ishtirokchisi ushbu Qoida talablariga rioya qilmasa, ishtirokchi aksiyada keyingi ishtirok etish va sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun aksiya ishtirokchilari ushbu Qoidalarga muvofiq aksiya o'tkaziladigan davr mobaynida sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatlarni imzolash paytigacha o'zlaridan talab qilinadigan barcha harakatlarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Bank tomonidan chiqarilgan InfinBLACK kredit kartasi egasi bo'lish va ushbu kartadan o'tgan oyga nisbatan 1 000 000,00 (bir million) so'mga ko'proq to'lovni amalga oshirish lozim.

3.2. Bank mijozining aksiya o'tkazilishi to'g'risidagi tegishli e'lonni olgandan keyin Bankning mobil ilovasidan foydalanishda davom etishi Bank mijozining aksiyada ishtirok etishni qabul qilganligi hisoblanadi va u aksiya ishtirokchisiga aylanadi.

3.3. Bir nechta faol kredit kartalariga ega bo'lgan foydalanuvchi, agar har bir karta bo'yicha 2024-yil dekabr oyida to'lovlar amalga oshirilgan bo'lsa, tegishli miqdordagi g'alaba qozonish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

4. Sovrin jamg'armasi

4.1. iPhone15 Pro Max 256 GB smartfoni - 1 dona.

4.2. Smartfon rangi Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

4.2. G'oliblar sovrinni almashtirishni talab qilishga haqli emas.

5. Aksiyani o'tkazish va sovrinlarni o'ynash tartibi

5.1. Sovrinli o'yin ishtirokchilari ushbu qoidalarga rioya qiladigan va 2025-yil 1-yanvardan 31-yanvargacha InfinBLACK kartasidan foydalangan holda o'tgan oyga nisbatan 1 000 000,00 (bir million) so'm ko'p to'lovni amalga oshirgan shaxslar oyinda ishtirok etishlari mumkin. G'olib 2025-yil 6-fevral kuni bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi korporativ sahifasida jonli efrida tasodifiy tanlov asosida aniqlanadi.

5.2. Bank aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi yoki mukofot berilishi bundan mustasno.

5.3. Aksiyada ishtirok etish fakti ishtirokchilarning o'z ism-shariflari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallardan Bank tomonidan ularga hech qanday haq to'lamasdan reklama maqsadlarida foydalanish mumkinligiga roziligini bildiradi.

5.4. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) ish kuni oldin www.infinbank.com veb-saytiga o'zgartirishlar kiritish orqali har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bank sovrinlar ro'yxati va hajmini, shuningdek aksiya muddatini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchiga aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa harajatlarni qoplamaydi yoki qaytarmaydi.

5.5. Bank yutuqdan foydalanishning butun davri davomida sovrin egasining sog'lig'iga (hayotiga), uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

- 5.6. Ushbu aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida yaxshi niyat va o'zaro anglashuv asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuv bo'lmagan taqdirda nizo Bank joylashgan yerdagi sudda sud tartibida ko'rib chiqiladi.
- 5.7. Bank maxsus Randomus dasturi yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o'xshash dasturlardan foydalangan holda jonli e'firda 1(bir) ta asosiy g'olib va qo'shimcha 2 (ikki) ta ishtirokchini zahira nomzod sifatida aniqlaydi.
- 5.8. Asosiy g'olib 10 (o'n) ish kunidan ortiq vaqt ichida sovrinni rad etgan va/yoki mukofotni olmagan taqdirda, mukofot Randomus yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o'xshash dasturlarda birinchi bo'lib aniqlangan zaxira nomzodga beriladi. Birinchi zaxiradagi nomzod sovrindan voz kechgan yoki mukofotni o'z vaqtida olmagan taqdirda, mukofot ikkinchi zaxiradagi nomzodga beriladi.
- 5.9. Agar barcha nomzodlar sovrindan voz kechsa va/yoki sovrinni o'z vaqtida olmagan bo'lsa, Bank komissiyasining qarori bilan ushbu bo'limning tegishli bandlarida nazarda tutilgan tartibda g'oliblarni muqobil aniqlash o'tkaziladi.
- 5.10. Agar G'oliblarni muqobil aniqlash natijalari bo'yicha sovrinni rad etish va/yoki mukofotni o'z vaqtida olmaslik natijasida mukofot olinmasa, Bank sovrinni o'z xohishiga ko'ra ishlatish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 5.11. G'olibning ismi bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida jonli e'firda e'lon qilinadi.
- 5.12. Ishtirokchi tomonidan aksiya shartlariga rioya qilmaslik oqibatlarini uchun Bank javobgarlikni bo'yniga olmaydi.

6. Sovrinlarni olish tartibi va shartlari

- 6.1 G'olib yutuq yutganligi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri xabardor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi bilan bankka tashrif buyurish majburiyatini oladi.
- 6.2. Sovrin G'olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolangan Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida G'olibga topshiriladi.
- 6.3. Bankning yutuqni g'olibga topshirish bo'yicha majburiyatlari, ularni ishtirokchiga topshirib, Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
- 6.4. Sovringa egalik huquqi Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng g'olibga o'tadi.
- 6.6. Mukofot taqdimoti jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda tantanali ommaviy tadbir sifatida tashkil etilishi mumkin.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiya o'tkazish shartlari, uni to'xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to'g'risida xabardor qilish tartibi

- 7.1. Aksiya ishtirokchilarini uni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida xabardor qilish Bank sahifasida, Internetda, ommaviy axborot vositalarida va kontekstli reklamada reklama postlarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
- 7.2. Ushbu aksiya haqida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning www.infinbank.com, rasmiy korporativ veb-saytining "Yangiliklar" bo'limida joylashtiriladi.
- 7.3. Aksiya haqida batafsil ma'lumotni bankning ishonch telefoni orqali (+998 71) 202-50-60 va 1214 qisqa raqami orqali ham olish mumkin.
- 7.4. Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan, uning shartlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Bankning www.infinbank.com, rasmiy korporativ veb-saytining "Yangiliklar" bo'limida joylashtiriladi.
- 7.5. Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Ishtirokchi Bank o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Ishtirokchining har qanday shaxsiy ma'lumotlarini ushbu Qoidalarning shartlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar uchun Bank tomonidan qayta ishlash va ulardan foydalanishga cheksiz rozilik beradi.

